



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT  
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQAROHAMKORLIK MASALALARI”  
mavzusidagi xalqaro konferensiya**

**“ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA, TIL  
KORPUSLARI VA TURKIY TILLAR  
PLATFORMALARINI YARATISH  
MUAMMOLARI”  
nomdagi sho‘ba materiallari**

**(2021-yil 18-oktabr)**



**Toshkent – 2021**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI”**

**mavzusidagi xalqaro konferensiya**

**“ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA, TIL KORPUSLARI VA TURKIY  
TILLAR PLATFORMALARINI YARATISH MUAMMOLARI”**

**nomdagi sho‘ba materiallari**

**(2021-yil 18-oktabr)**

**Toshkent – 2021**



UO‘K: 004.8+81’32

KBK: 81.1

**O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari** / Xalqaro konferensiya, “Zamonaviy leksikografiya, til korpuslari va turkiy tillar platformalarini yaratish muammolari” nomdagi sho‘ba materiallari. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 18.10.2021. – 452 b.

Ushbu to‘plamdan 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami (32 yilligi) munosabati bilan tshkil etilgan “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilishi mo‘ljallangan AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tili ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha hamda PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” (olima ayollar granti) doirasida tashkil etilgan “Zamonaviy leksikografiya, til korpuslari va turkiy tillar platformalarini yaratish muammolari” nomli sho‘basi materiallari joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan kompyuter lingvistikasi sohasi vakillari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va kelajak sohalariga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

#### **Mas’ul muharrir:**

**Sirojiddinov Sh.S.** Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, f.f.d., professor

#### **Ilmiy muharrirlar:**

**Raupova L.** ToshDO‘TAU, professor, f.f.d.

**Mengliyev B.** ToshDO‘TAU, professor, f.f.d.

**Abjalova M.** ToshDO‘TAU dots. v.b., f.f.f.d. (PhD)

#### **Taqrizchilar:**

**Normurodova N.** Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, dotsent, f.f.d.

**Shaxabitdinova Sh.** Andijon davlat universiteti, professor, f.f.d.



## TASHKILIY QO‘MITA

**Toshqulov Abduqodir Hamidovich** (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi)  
**Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich** (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

**Qirg‘izboyev Abdug‘affor Karimjonovich** (O‘zR Vazirlar Mahkamasining Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich** (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

**Raupova Laylo Raximovna** (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

**Normurodova Nozliya Zarilovna** (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

**Shaxabitdinova Shoxida Xashimovna** (Andijon davlat universiteti)

**Abdirashidov Zaynabidin Sharabidinovich** (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

**Мўратбек Багила Курманбеккызы** (Qozog‘iston, K.Jubanov nomidagi Aqto‘be viloyat universiteti)

**Elov Botir Boltayevich** (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

**Jo‘raqo‘ziyev Nodir Imomqo‘ziyevich** (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

**Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna** (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

**Abjalova Manzura Abdureshetovna** (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

## TAHRIR HAY‘ATI

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Raupova Laylo Raximovna

Normurodova Nozliya Zarilovna

Shaxabitdinova Shoxida Xashimovna

Elov Botir Boltayevich

Мўратбек Багила Курманбеккызы

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna

Abjalova Manzura Abdureshetovna

Abdiraimov Shohruh Samad o‘g‘li

Gulyamova Ozoda Shavkatovna

Xusainova Zilola Yuldashevna

Xudayberganov Nizomaddin O‘ktamboy o‘g‘li



## SINONIMLAR O‘QUV LUG‘ATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

**Abdiraimov Shohruh Samad o‘g‘li\***

**Annotatsiya.** O‘quv lug‘atchilik va uning taraqqiyoti til ta’limi mazmunini boyituvchi muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Maqolada o‘zbek tili o‘qitish metodikasida o‘quv lug‘atchilik taraqqiyoti va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga, sinonimlar o‘quv lug‘atlarining qiyosi, ular tahlili, yangi sinonimlar izohli o‘quv lug‘atini tuzishning ahamiyati, sinonimlar izohli o‘quv lug‘ati strukturasi belgilashning o‘ziga xosliklari, lug‘at maqolani shakllantirish tartiblari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar.** *O‘quv lug‘atchilik, sinonimlar, sinonimlar o‘quv lug‘ati, lug‘at strukturasi, lug‘at maqola, leksik minimum*

**Kirish.** Global zamon talabi bilan har bir fanning ijtimoiy ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa umumta’lim fanlarining mazmun-mohiyatini takomillashishiga, tadrijiylik kasb etishiga olib kelmoqda. Umumiy o‘rta ta’limda ona tili fanini o‘quvchilarga o‘rgatishdan asosiy maqsad o‘zgarar fikrini va matn mazmunini nutq vaziyatiga mos tarzda idrok qila oladigan, mulohazalarini, munosabatini og‘zaki va yozma tarzda tushunarli va ta’sircha ifodalay oladigan yosh avlodni tarbiyalash hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirishda o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish bilan birga, o‘quv vositalarini, darsliklarni, mashq daftarlarini, darsliklarning multimediali ilovalarini sifatli tayyorlash hamda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradigan ta’limiy lug‘atlarni tuzish, ulardan foydalanish muhim ahamiyatga molikdir. Ammo hozirgi ta’lim kontekstida esa o‘quv lug‘atlardan foydalanish, ular yordamida o‘quvchilarning so‘z o‘zlashtirishini, lug‘at boyligini oshirishi ta’minlanmayapti deya olmaymiz.


**Adabiyotlar tahlili.** O‘quv lug‘atlarini tuzish, uni amaliyotga joriy etish bo‘yicha muayyan tajribalarga egamiz, biroq o‘quv lug‘atlarini tom ma’nodagi ta’limiy lug‘atlarga aylantirish yuzasidan qiladigan ishlarimiz bisyor. Avvalo, o‘quv lug‘ati haqida to‘xtalsak, turli tadqiqotlarda o‘quv lug‘atlar haqida muayyan fikrlar keltirilgan. Tadqiqotlarning birida shunday ta’rif keltiriladi: “O‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan qimmatli va boy so‘z zahirasini vujudga keltiradigan kichik hajmli lug‘atlarga o‘quv lug‘atlari deyiladi”. Boshqa bir manbada esa quyidagicha izohlanadi: “O‘quv lug‘atlari ta’lim sohasi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu turdagi lug‘atlar o‘quvchilarga nafaqat so‘z boyligini kuchaytirish, nutqiy yoki yozma savodxonligini oshirish,

\* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi,  
O‘zbekiston

balki ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ham xizmat qiladi”. Yuqoridagi fikrlar, bir-birini to‘ldirsa ham, bizningcha, ushbu ta’riflar yetarli emas hamda o‘quv lug‘atchilikni takomillashtirish lozim. Shulardan kelib chiqib, bizningcha, o‘quv lug‘atlar – faqat so‘zlarni turli belgilariga asosida alifbo tartibida beriladigan kichik so‘zlik emas, balki o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga, til birliklarini o‘zlashtirishiga xizmat qiladigan hamda so‘z o‘quvchining mulkiga aylanishi uchun turli topshiriqlar (rasmli, chizmalı topshiriqlar, testlar va boshqalar) yordamida ta’limiy mazmun kasb etadigan lug‘atlardir. Shu bois ham globallashtirish zamon talabi asosida o‘quv lug‘atlarni takomillashtirish, lug‘atlarning ta’limiy funksiyasini oshirish, til o‘zlashtirishga xizmat qilishi uchun lug‘at tuzish prinsiplarini qayta ko‘rib chiqib, unda turli metodikadagi topshiriqlarni singdirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Sinonimlar izohli o‘quv lug‘ati ta’limiy lug‘atlardan eng ahamiyatlisi hisoblanadi. Boisi ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati o‘quvchilar lug‘at boyligini oshirishda, ularda so‘zamolik, gapga chechanlik ko‘nikmalarini shakllantirishda, nutqning to‘g‘riligini, jo‘yaligini, sofligini, mantiqiyiligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunga qadar o‘zbek tilshunosligida sinonimlar izohli lug‘ati va ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati tuzilgan. Biroq mazkur lug‘atlarni ta’limiy lug‘atlar deya olamizmi?! Ushbu lug‘atlarni tahlil qilib chiqamiz.

O‘zbek leksikografiyasida birinchilardan bo‘lib, tilshunos olim Azim Hojiyev lug‘atchilik prinsiplariga asoslanib “O‘zbek tilining sinonimlar izohli lug‘ati”ni tuzgan. Keyingi tuzilgan sinonimlar lug‘ati mazkur lug‘at asosida yaratilgan. Mazkur lug‘at lug‘at maqola va lug‘atdan iborat. Ushbu lug‘atda sinonimlarni berish strukturasi quyidagicha.



1-rasm. Sinonimlar izohli lug‘ati strukturasi.

*ҲИССА, ТЕГИШ, УЛУШ, ТАН. Бирор нарсанинг кимгадир (нимагадир) оид, унга қарашли қисми.*

Республикамыз аҳолисининг ёшидан тортиб кексасигача шу мўътабар ишга ўз **ҳиссасини** кўшишга интилмоқда («Қизил Узбекистон»).

Энди бизнинг корхонамыз — коммунистик меҳнат корхонаси. Одамлар фақат ўз **тегишини** олади... («Қизил Узбекистон».)

Бу ишга барча қишлоқнинг деҳқонлари ўз *улушларини* қўшишлари керак (Х. Ғулом).

Энди сиз билмаган нарса шуки, тенг шерик эмасмиз. Мен тўртдан бир *ман* (А. Қаҳҳор).


Ushbu lug‘atda o‘zbek tilidagi ma‘nodosh so‘zlar izohi va ularning nutqda qo‘llanishi keltirilgan, xolos.

Keyinchalik yaratilgan “Ma‘nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”da sinonimlarni berishda lug‘at tuzish prinsipiga yetarlicha amal qilinmagan, faqatgina ma‘nodosh so‘zlar qatorini berish bilan cheklangan. Masalan,

*Hissa[a], tegish, ulush, tan[f-t]*

Mazkur lug‘atda nutqda sinonim bo‘luvchi so‘zlar qatori berilgan hamda, ma‘nodosh so‘zlar o‘zlashgan qatlama oid bo‘lsa, qaysi tildan kirib kelgani keltirilgan.

**Taklif va xulosalar.** Yuqorida biz o‘quv lug‘atlari, o‘quv lug‘atlarining ona tili ta’limidagi ahamiyati hamda shu paytgacha yaratilgan sinonimlar lug‘atlarini tahlil qildik, munosabat bildirdik. Aslida sinonimlar lug‘ati qanday bo‘lishi kerak?! Biz o‘rganganlarimiz, tajribamiz, sinonimlarning nutq yaratishda va uni idrok etishdagi ahamiyatini hisobga olgan holda, shuningdek, zamonaviy til o‘qitish yondashuvlariga asosan “Ma‘nodosh so‘zlar izohli o‘quv lug‘ati” strukturasi quyidagicha bo‘lishi samarador, maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz.



2-rasm. Sinonimlar o‘quv izohli lug‘ati strukturasi.

Taklif etayotgan yondashuvimiz asosida quyida “Sinonimlar izohli o‘quv lug‘ati”da beriladigan ma’nodosh so‘zlar izohi namunasini keltiramiz.

## **HISSA – TEGISH – ULUSH – TAN**

► Biror narsaning kimgadir yoki nimagadir tegishli qismi.

**HISSA**[a]. *Ma’nodosh so‘zlar ichida eng faol qo‘llanuvchi, uslubiy betaraf, odatda qaratqich kelishigidagi so‘zga birikuvchi so‘z hisoblanadi. M: Uning hissasini beringlar.*

**ULUSH**. *Nutqda “hissa” so‘ziga nisbatan kamroq qo‘llanadi. Uslubiy betaraf. Odatda, qaratqich kelishigidagi so‘zga birikadi. M: Biz o‘z ulushimizni hech kimga bermaymiz.*

**TEGISH**. *Nutqda nisbatan kam qo‘llanadi. Asosan so‘zlashuv va badiiy uslubda foydalaniladi. Odatda, qaratqich kelishigidagi so‘zga birikadi. M: Ishni tugatdik, har kim o‘z tegishini oladi.*

**TAN**[f-t]. *Nutqda kam qo‘llanadi. Asosan badiiy uslubda, qisman so‘zlashuv uslubida foydalaniladi. M: Sizga to‘rt dan bir **tan**.*

Lug‘atning Mashq daftari qismida mazkur sinonimik qatorga monand, ma’nodoshlarni farqlashga xizmat qiladigan test topshiriqlari tuzilsa, o‘quvchilarda sinonimlarni nutq vaziyatiga qarab qo‘llash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi avlod sinonimlar o‘quv izohli lug‘ati o‘quvchilarga ma’nodosh so‘zlar haqida faqat bilim berish uchun xizmat qiladigan so‘zlikdan, balki ma’nodosh so‘zlarni jonli nutqda farqlab qo‘llay olishi uchun ta’limiy topshiriqlardan iborat bo‘lsa, o‘quvchida so‘zga hisobdorlik, nuqtadonlik, so‘zdan tanlab foydalanish, yoqimli va ta’sirchan nutq ifodalash ko‘nikmasi shakllanadi.





## Adabiyotlar

1. Bahriddinova B.M. O‘zbekistonda o‘quv lug‘atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari. Filologiya fanlar doktori (DSc)...dis.avtoref. – Samarqand 2020.
2. Девкин В.Д. Очерки по лексикографии / В.Д.Девкин. –Москва: Прометей, 2000. -395 с.
3. Bahriddinova B., O‘zbek o‘quv lug‘atchiligi istiqbollari. Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2020-yil 4-son. 7-11-bet
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг синонимлар изоҳли луғати. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 1974.
5. Shukurov O., Boymatova B. Ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2009. 54 bet

## MUNDARIJA

Tashkiliy qo‘mita .....	3
Davlat tili – milliy yuksalish mezonini .....	4
The state language is a criteria for national rise .....	7
“O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” nomli amaliy loyihasi xususida .....	10
Creation of educational corpus of Uzbek language with regard to practical project .....	14
“Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihalar xususida .....	17
About practical projects on “Creating a linguo-didactic e-Learning platform for Turkic languages” .....	20
Raupova L. Normurodova N., Khursanov N. Discourse: pragmatic features in its expression in literary works .....	23
Berdialiyev A. Луғавий бирликлар ифода ва мазмун сатҳларидаги ўзгаришларнинг сўз ясаши билан боғлиқ хусусиятлари хақида .....	35
Pablo Quiroz Zepeda Expand the horizon: the latin america opportunity .....	40
Bayek M.J. G‘afforov N. Sport atamallari izohli lug‘atini tuzish muammolari .....	44
Raupova L. Li Xiang. Теория речвых актов .....	49
Shahobiddinova Sh. Turkiy tillarda grammatik ma’no ifodalanishi .....	59
Prof. Dr. Akhlaque Ahmad ‘Ahan’. Sufism and Humanism in the poetry of Amir Ali Sher Nawai .....	64
Normurodova N. Li Xiang. Директивные речевые акты .....	71
Sayfullayeva R. Gap va uning substansial xususiyatiga aloqador omillar ....	83
Erjigitova Sh. Некоторые значения терминов родства и их выражение в кыргызском и русском языках .....	88
Elov B., Abjalova M., Yuan Min. Прикладная лингвистика: проблемы лингвистических корпусов и создания платформ тюркских языков ....	96
Абдрахманова Ж. Қазақ тіліндегі латын графикасының қолданыс тәжірибесі .....	102

Абылова Г. Қазақ тілінде қарсылықты бағыныңқылы сабақтас сөйлемнің мағыналық ерекшелігі .....	110
Noraliyeva Sh. G'aniyev S., Namroyeva Sh. Ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқини ривожлантиришда инновацион методлар ( <i>Ўзбекистон халқ шоири Сирожиддин Саййид шеърятини мисолида</i> ) .....	118
Троцюк С. Хамроева Ш. Использование опыта <i>Abbuu lingvo</i> при создании электронных словарей .....	125
Мұратбек Б. Профессор қ.жұбанов еңбектеріндегі сөзтану негіздері және қазақ тіл біліміндегі сабақтастық формуласы .....	130
Садуақас Нұрбол Абдуллаұлы. Концепт және ғаламның тілдік бейнесі .....	142
Хамроева Sh. Mamadaliyeva. Avtomatik morfologik tahlilda so'z va gap orasidagi farq: pos tagging hamda so'zshaklni aniqlash .....	150
Розметова Н. Zhou Xiaoping, Зарипбоева Н., Прагматические признаки для классификации директивов .....	155
Abjalova M. Lingvistik ontologiyalarni takomillashtirishda til korpuslaridan foydalanish omillari .....	170
Dr. Kemal Yavuz Ataman. Küreselleşmenin etkileri ve folklorun korunması .....	177
Toirova G. O'zbek milliy korpusini yaratishda qo'shma so'z yasalishining lingvistik modellari .....	185
Raxmatova Z. Bolalar ensiklopedik lug'atlari lingvodidaktik vosita sifatida .....	191
Axmedova M. Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish metodikasi .....	195
Jo'rayev A. Gid-tarjimonlarning professional faoliyatidiskurs kompetensiya va uning shakllari .....	201
Iriskulov A. Aslanov A., Subhonova A. The importance of learning Uzbek and foreign languages during the Third Renaissance .....	206
Абдуллина А. Эбу Насыр эл-Фарабидің «Бақыт жолын сілтеу» трактатындағы танымдық-философиялық түйін .....	213
Жұмағалиева Р. Жазушы Т.Жармағамбетовтің «Отамалы» әңгімесінің көркемдік сипаты .....	221
Dr. Mehmet Can. Orta asya türk cumhuriyetleri'nin enerji kaynaklari üzerinde küresel güç çatışmaları .....	227
Dr. Mehmet Can Sovyetler Birliği'nin Türk Topluluklarında Yaptığı	

Alfabe Değişiklikleri ve Sonuçları .....	235
Дусалиева Г. Орус тилинин окутуунун жаны ыкмалары жана анын жолдору .....	242
Axmedova M. Davlatova A. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek va ingliz tillarini o'qitishda o'quv materiallarini tizimlashtirishning didaktik asoslari	253
Axmedova M. Ochilova N. O'zbek va ingliz stereotiplarining madaniyatlararo to'qnashuvi .....	260
Gulyamova Sh. Polisemantik so'zlarni modellashtirish masalasi .....	266
Yunusova Z. G'afurov B. Ўзбек ва тожик тилшунослиги фонетик-фонологик .....	270
Игильманова А. С. Сейфуллиннің «Тар жол, тайғақ кешу» романындағы азаматтық идея .....	276
Toshxodjayeva P. Xorijiy tillarni o'rganishda ona tilining o'rni va ahamiyati .....	281
Safarova G. Evfemizmlar ko'p aspektli, o'zgaruvchan hodisa sifatida .....	286
Xolmurodova M. Yordamchi so'z turkumlarining pragmatik voqelanishi ( <i>Erkin A'zam kinoqissalari misolida</i> ) .....	293
Safarova G. Raximov L., Toponimiyada nomlarning yasalishi va grammatik tuzilishi .....	303
Қалиев Е. Жамбыл Жабаев шығармашылығының көркемдік әлемі	309
Niyazova G. Detektiv asarlar tilining pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish	316
Niyazova G. Rajabov M. Zaripboyeva N. O'zbek tilshunosligida detektiv asarlarning lisoniy tadqiqi .....	321
Xamidov M. Janubiy Surxondaryo o'zbek shevalaridagi dialektal so'zlar barqarorligini ta'minlashning dolzarb xususiyatlari ( <i>Jarqo'rg'on tumani misolida</i> ) .....	325
Elova D. Uslubiy bo'yoqdor so'zlarni teglashda izohli lug'atdagi pometalarning o'rni .....	329
Khursanov N. Cognitive features of behavioral verbs in english and uzbek .	334
Махметова М. Мұхтар Әуезов әңгімелеріндегі мифологизм .....	339
Ishonxonova I. Ona tili darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati .....	346
Murtazayev A. Mazmuniy aynan, o'xshash va shakliy farqli sodda gaplarning leksik vositalari hamda ularning lingvistik modellari .....	351



Rustamov D. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur (jadidlar davrida til siyosati) .....	360
Баймуратова А. Қазақ мифологиясындағы образдар жүйесі .....	365
Muqimova S. Po‘latova S., Maqollar: lingvomadaniy jihatlar, integrativ yondashuv .....	371
Abdiraimov Sh. Sinonimlar o‘quv lug‘atini takomillashtirish zarurati	377
Kadirova Z. Alisher Navoiy nasrida perifrazalarning ifoda shakllari .....	382
Sobirova M. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘zbek va qozoq tillari leksikasini o‘qitishda lingvokulturologik yondashuv .....	388
Raxmonova M., Salomov A. Rus va tatar tillari milliy korpuslari tahlili .....	392
Amirqulov M. Parallel korpuslar va ularni yaratishdagi turli yondashuvlar ..	402
Bozorova E. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan qimmatbaho tosh nomlari .....	407
Abjalova M. Salomov A. Mashina tarjimasini lingvistik ta‘minoti uchun o‘zbek↔ingliz sinonimlar bazasini yaratish masalasi .....	409
G‘ulomova N. Uzviylashtirilgan ta‘lim tizimida alisher navoiy ijodini o‘qitish omillari .....	419
Rizvanov Q. Tatar milliy korpusi va uning tahlili .....	424
Ortiqaliyeva G. O‘zbek tilining o‘qitish tizimini avtomatlashtirishda xorij tajribalari .....	433
Abduraxmonova N. Nutqni tanish dasturining ta‘lim tizimidagi ahamiyati ..	444
Zaripbayeva N. Imlo masalalarining tadqiqi .....	449